

## Qumqo'rg'on agrosanoat texnikumidagi tadbir

Bundan uch yil avval davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkilotining oliy minbaridan O'zbekistonning tub islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qarori qat'iy ekanini ta'kidlagan edilar. O'tgan yillar davomida bu fikr o'z isbotini topib kelmoqda. Xususan, jamiyatni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Natijada yangi O'zbekiston shakllanmoqda. Yangi O'zbekistonning mutlaqo yangi surati va siyrati ko'z oldimizda yuz ochmoqda. Bu degani, albatta, yangi islohotlar, yangi talablar, yangi vazifalar, yangi mas'uliyatlar deganidir. Bugun ko'ryapmizki, mamlakatimizdagi demokratik o'zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi, xalqimizning salohiyati o'smoqda, fikrlari yanada teranlashmoqda, yangiliklarni qabul qiluvchi emas, ularning yaratuvchisiga aylanmoqda.



Institutimiz huzuridagi Qumqo'rg'on agrosanoat texnikumida bugun 17.11.2020 da "Yangi O'zbekistonga yangicha dunyoqarash" shiori ostidagi o'tkazilgan tadbirda ham ana shu ruh hukmronlik qildi. - Bugungi kunda biz, yoshlarga Davlatimiz rahbari tomonidan barcha imkoniyatlar va imtiyozlar yaratib berilmoqda. Faqatgina biz ulardan oqilona va unumli foydalanishimiz lozim. Bizga ishonch bildirilmoqdami, demak biz ham mas'uliyatni his qilgan holda bilim olishimiz, hunar o'rganishimiz orqali yurtimiz tinchligi, Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo'shmog'imiz darkor, - deydi "Mard o'g'lon" davlat mukofoti sohibi Suxrob Haydarov. Tadbirda "Yangi O'zbekiston - yangicha dunyoqarash" g'oyasini mujassam etgan she'rlar, kuy va qo'shiqlar ijro etildi. Sport saroyida yosh sportchilarning turli ko'rgazmali chiqishlari ham namoyish etildi. Tadbirda yosh ijodkorlar va sportchilar tashkilotchilar tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. "Yangi O'zbekiston - yangicha dunyoqarash" shiori ostida o'tkazilyotgan ma'rifiy-madaniy tadbirlar tuman bo'ylab davom etmoqda.



TIQXMMI matbuot xizmati